Milliy qadriyatlarni asrashda oilaning roli

Xolxo‘jayeva Nargiza Yusupjonovna
O‘zXIA magistranti
Ilmiy rahbar: yu.f.d. dosent D.Karimova

Oila bu- kichik vatan, muqaddas qo‘rg‘on, ertangi kun egalari kamol topadigan buyuk maktab. U hayot abadiyligi avlodlar davomiyligi ramzi bo‘lish bilan birga urf - odatlarimizni saqlaydigan muqqaddas dargohdir.

Azaldan oilada bola ta’lim-tarbiyasiga juda katta e’tibor bilan qarab kelingan. Binobarin, davlat va jamiyatning mustaqilligi va mustahkamligi bevosita mana shu masala bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bolalar va yoshlarning tarbiyasi, ayniqsa, ularda yuksak ma’naviy-axloqiy omillarni shakllantirish barcha zamon va makonlarda jamiyatning eng muhim va ustuvor vazifalaridan biri hisoblangan.

Bugun shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamon, dunyoning ayrim mintaqalarida, yon-atrofimizda bo‘layotgan voqealar, ziddiyat va to‘qnashuvlar davlat hamda jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-ma’naviy sog‘lom muhit hal qiluvchi ahamiyatga egaligini ko‘rsatmoqda. Xususan, aholini, birinchi navbatda, yoshlarni turli yot va buzg‘unchi g‘oyalardan, axborot hamda mafkuraviy xurujlardan asrash, ularni milliy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida kamol toptirish, qalbiga vatanparvarlik tuyg‘usini chuqur singdirish dolzarb masalaga aylandi. Yoshlarga milliy qadriyatlarimizni tanitishda va ularga sadoqatni shakllantirishda oilaning o‘rni beqiyosdir.

Avvalambor milliy qadriyatlar haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, milliy qadriyat bu – millat uchun ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq xoslik shaklidir. Milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning o‘ziga xos udumlari, uning yuksak axloqiy fazilatlari ma’naviyatimiz o‘zagidir. Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda milliy qadriyatlarni tiklash, takomillashtirish, o‘zligimizni bilish, ma’naviy qadriyatlar tizimini yaratish umummiliy, dolzarb vazifalardan biridir. Dunyoda o‘ziga xos qadriyatlari bo‘lmagan millat yo‘q. Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarzi, ma’naviyati, madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Keyingi vaqtlarda O‘zbekistonda milliy qadriyatlarga e’tibor kuchaydi. Bu ona yurtga ehtirom, avlod-ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, hayo, andisha kabi xususiyatlarning ustuvorligi bilan tavsiflanadi.

Milliy qadriyatlarning asosi bo‘lgan ma’naviyat va madaniyat deganda, inson xulq-atvorining go‘zalligi, saxovatliligi, oliyjanobligi, va’dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donoligi, bag‘rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg‘uborligi, xushmuomalaligi va shu singari insoniy xislatlar tushuniladi. Ota-ona o‘z farzandlari bilan bevosita va bilvosita muloqotda bo‘lib, ularni ma’nan oziqlantirar ekan, eng avvalo, o‘zlari o‘zaro muomala jarayonida namuna bo‘lishlari hamda farzandlarini ko‘proq tinglab, nutqiy layoqatini oshirishga harakat qilishlari so‘ngra o‘z fikrlarini axloq me’yorlariga rioya qilgan holda suhbatga oid hikmatlar, maqollar, hayotiy misollardan keltirib tushuntirishlari juda muhimdir. Insonning eng sof tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada ota-onaning qalb qo‘ridan chiqadigan mehr-muhabbati, shirin so‘zi orqali shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – ezgulik, olijanoblik, mehr-oqibat va or-nomus kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila muhitida qaror topadi. Shunday ekan, farzandni milliy qadriyatlar asosida jismonan va ma’nan barkamol qilib o‘stirish ota-onaning hayotdagi birlamchi va eng muhim vazifasi hisoblanadi.

Islom huquqi ham ota-ona va farzandlarning bir-birlarida o‘ziga xos huquq va majburiyatlari bor ekanligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, ota-ona-ning farzand oldidagi majburiyati, avvalo, tarbiyaga taalluqli bo‘lib, farzandlarni yosh go‘daklik vaqtlaridan boshlab axlok va odobga

o‘rgatishi ularning kechiktirib bo‘lmas vazifasidir. Agar bunday qilinmasa, farzandlar haqi ado etilmagan bo‘ladi. Bolaning tug‘ilgan kunidan boshlab ota-ona bo‘ynidagi haq-huquqlari hadisi sharifda shunday bayon qilingan:

- tug‘ilganda go‘dakka ism qo‘yish;
- imkon bo‘lsa unga aqiqa qilish;
- tili chiqqan vaqtdan boshlab unga odob o‘rgatish;
- din asoslarini o‘rgatish;
- halol va haromning asoslarini o‘rgatish;
- kasb-hunar o‘rgatish (ilm olish va xilma-xil zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish ham shunga kiradi);

bolaning huquqlaridan, shuningdek, o‘g‘il bolalarni xatna qilish ham ota-onaning vazifasidir.[1]

O‘zbek oilalarining ma’naviy zaminlari mustahkam bo‘lishiga sabab bo‘lgan ko‘plab milliy an’analar bor:

1. Ota-onani og‘rintirmaslik. Xalqimiz orasida shunday maqol bor: “Otasini og‘rintirgan el ichida xor bo‘ladi, deb bejiz aytilmagan. Bu maqol ham minglab yillik xayot saboqlarini uyushtirishga asoslangan xulosa, falsafiy hikmat, yoshlarga o‘gitdir.

2. Ota-ona izzat-xurmatini joyiga qo‘yish. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”. “O‘z ota-onanga qilganingni farzandingdan ko‘rasan”.

3. Farzandlarni ota-onaga mehribon bo‘lishi.

Yoshlar ma’naviyatining birinchi poydevorini qo‘yadigan me’mor ota- onadir, oiladagi muxit va tarbiyadir. Yoshlarning tarbiyasiga qarindosh urug‘lar, maxalla-kuy, qo‘ni-qo‘shnilar ham katta ta’sir ko‘rsatadi.

Guruch kurmaksiz bo‘lmaydi deganlaridek, farzandining kelajagiga befarq, mas’uliyatini his qilmaydigan ota-onalar ham uchrab turadi. Davlatimiz rahbarining “Yoshlar, xususan, o‘smirlar orasida bezorilik, jinoyatlar soni ortishiga qanday omillar sabab bo‘lyapti? Ba’zi yigit-qizlar uchun mehr-oqibat, axloq-odob tushunchalari butunlay begona bo‘lib borayotgani, ularda befarqlik, mas’uliyatsizlik, mehnat qilmasdan kun ko‘rishga intilish kabi illatlar paydo bo‘layotgani – achchiq bo‘lsa-da, haqiqat”,[2] – degan fikrlari ham bejiz emas. Bunday ma’lumotlar kishini beixtiyor o‘yga toldiradi. Xo‘sh, o‘smirlar ota-ona, maktab, mahallaning qurshovida, e’tiborida bo‘lsa-da, bunday guruhlarga qanday qo‘shilmoqdalar? Ma’lumki, inson huquqbuzarlik yo‘liga jamiyat, oila, maktab bilan uzviy aloqaning uzilishi tufayli kiradi. Prezidentimizning “Yosh oilalar orasida arzimas sabablar bilan ajrashishlar ko‘payib bormoqda. Begunoh bolalar yetim bo‘lib, mehr va e’tiborga eng tashna vaqtida ota-ona tarbiyasidan chetda qolmoqda. ...Yana bir noxush holatni bugun afsus bilan aytmoqchiman: oilalarda nosog‘lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda,[3] – degan fikri barcha oilalar, ta’lim-tarbiya tizimi, oila bilan bog‘liq davlat va jamoat tashkilotlarining bu masalaga ilmiy, amaliy va innovasion jihatdan yondashishlari zarurligini ko‘rsatmoqda.

---

[1] J. Toshqulov, N. Yusupova. Islomda oila huquqi. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2015. – B. 161.

[2] Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston”, 2016.B.486

[3] Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. “O‘zbekiston”, 2016.B.487

Jamiyatimizda oilalarni saqlab qolish, ajrimlar sonini qisqartirish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo, yosh oilalarni ish, uy-joy, real daromad bilan ta'minlash darajasini oshirish lozim. Bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashda diniy bilimni kuchaytirish, oila muqaddasligi g'oyasini singdirish shart. Yoshlar oila qurishlaridan avval bo'lajak er yoki xotinning mol-davlati, shon-shuhratiga emas, tarbiyasi va axloqi, ma'naviy go'zalligiga e'tibor qaratishlari lozim. Yoshlarning oilaviy munosabatlarida o'zaro kelishmovchilik kelib chiqqan holatlarda, ajralish uchun shoshmasdan, o'rtani isloh qilish va yarashtirish uchun har ikki tarafdan vakillarni chaqirish, oilada iqtisodiy tanglik holatida erdan talog'ini berishga shoshmasdan, boriga qanoatli va sabrli bo'lish, farzandining kelajagini o'ylash muhim sanaladi.

Buyuk sarkarda Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e'tibor bergan. Sohibqiron, xususan, kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: «O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'lik -salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushurdim».

Oilaning jamiyat hayoti va taraqqiyotidagi ahamiyati to'g'risida A.Fitrat shunday degan edi: "Har bir oilaning saodati va izzati, albatta shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq.Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi, mamlakat va millat ham shunda kuchli va tartibli bo'ladi. Oilaviy munosabatlar zaif bo'lsa intizomsizlikka yo'l qo'yilsa shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi.[4]

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan",[5] – degan fikrlari barchamizga dasturilamal bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fitrat Abdurauf. Oila. T.: Ma'naviyat, 1998.
2. J. Toshqulov, N. Yusupova. Islomda oila huquqi. – T.: "Toshkent islom universiteti", 2015.
3. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston", 2016.

[4] Fitrat Abdurauf. Oila. T.: Ma'naviyat, 1998. B. 8

[5] Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. "O'zbekiston", 2016.B.486

https://wordlyknowledge.uz